

## O'ZBEKİSTONDA MAXSUS İQTİSODİY HUDUDLARNING SHAKLLANISHI VA İSTİQBOLLARI

**Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich**  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada maxsus iqtisodiy hududlarning nazariy-uslubiy asoslari o'r ganilgan bo'lib, erkin iqtisodiy hamda maxsus iqtisodiy zonalarning farqli jihatlari keltirilgan. Maqolaning maqsadi Jahon xo'jaligida maxsus iqtisodiy hududlarning shakllanishi, ya'ni tashkil qilish va jahon xo'jaligida maxsus iqtisodiy hududlar faoliyatini rivojlantirish orqali "iqtisodiy mo'jiza"ga erishgan va milliy iqtisodiyot taraqqiyotida tashqi savdo-sotiq siyosatini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish, uning ijobjiy tomonlarini umumlashtirish asosida O'zbekistonda maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil qilish va uni rivojlantirish istiqbollari, hamda maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etishdagi jahon tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari borasida takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirilgan: erkin iqtisodiy zonalar ham maxsus iqtisodiy zonalarning bir turi bo'lsa, erkin zonalar erkin portlar faoliyatini tavsiflaydi; xorijiy mamlakatlar amaliyotida maxsus iqtisodiy zonalarning erkin savdo zonalari, erkin ishlab chiqarish hududlari, erkin iqtisodiy hududlar, texnologik-innovatsion parklar va boshqa turlari keng qo'llaniladi.

**Kalit so'zlar:** erkin iqtisodiy zona, maxsus iqtisodiy zona, erkin port, erkin eksport hududi, erkin zona, "Bojxona tartib-tamoyillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida"gi Xalqaro konvensiya.

## ФОРМИРОВАНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ СПЕЦИАЛЬНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОН В УЗБЕКИСТАНЕ

**Нурбоев Жалолиддин Мамадалиевич**  
Деновский предпринимательско педагогический институт

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы особых экономических зон и представлены различные аспекты свободных экономических и особых экономических зон. Целью статьи является исследование с научной точки зрения внешнеторговой политики, совершившей «экономическое чудо» за счет образования в мировом хозяйстве особых экономических зон, то есть организации и развития деятельности специальных экономических зон в мировом хозяйстве и развитии национальной экономики, на основе обобщения ее положительных сторон разработать предложения по созданию в Узбекистане специальных экономических зон и перспективам ее развития, а также возможности использование мирового опыта создания особых экономических зон в Узбекистане. В результате исследования были сформированы следующие выводы и предложения: свободные экономические зоны также являются разновидностью особых экономических зон, а свободные зоны характеризуют деятельность свободных портов; в практике зарубежных стран широко используются зоны свободной торговли, зоны свободного производства, свободные экономические зоны, технико-внедренческие парки и другие виды особых экономических зон.

**Ключевые слова:** свободная экономическая зона, особая экономическая зона, свободный порт, зона свободного экспорта, свободная зона, международная конвенция об упрощении и гармонизации таможенных процедур.

## FORMATION AND PROSPECTS OF SPECIAL ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN

Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich

Denov entrepreneurship and pedagogical institute

**Abstract.** This article examines the theoretical and methodological foundations of special economic zones, and presents the different aspects of free economic and special economic zones. The purpose of the article is to research the foreign trade policy from a scientific point of view, which has achieved an "economic miracle" through the formation of special economic zones in the world economy, that is, the organization and development of the activities of special economic zones in the world economy, and the development of the national economy. On the basis of summarizing its positive aspects, it is to develop proposals for the establishment of special economic zones in Uzbekistan and its development prospects, as well as the possibilities of using the world experience in the establishment of special economic zones in Uzbekistan. As a result of the research, the following conclusions and proposals were formed: free economic zones are also a type of special economic zones, and free zones describe the activity of free ports; in the practice of foreign countries, free trade zones, free production zones, free economic zones, technological-innovation parks and other types of special economic zones are widely used.

**Keywords:** free economic zone, special economic zone, free port, free export zone, free zone, International Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures.

**Kirish.**

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi va Navoiy viloyati hokimligining Navoiy shahri xalqaro aeroporti hududida "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona (keyingi o'rnlarda – EIIZ) tashkil etish to'g'risidagi takliflari asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e'lon qilindi. So'ngra Vazirlar Mahkamasi turli qaror, nizom va dasturlar ishlab chiqdi va shu asosda Navoi viloyati hududida "Navoi" EIIZ tashkil qilish ishlari boshlab yuborildi.

"Navoiy" EIIZ hududida davlat organlarining faoliyati va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining qo'llanilishi "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi (Farmon, 2008) O'zbekiston Respublikasi Qonunida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida" 2008 yil 2 dekabrdagi PF-4059-son Farmonida va uni ijro etish maqsadida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda, va VM Nizomida, investitsiyalash to'g'risidagi xalqaro shartnomalar va bitimlarda nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda amalga oshirilmoqda.

**Adabiyotlar sharhi.**

"Navoiy" EIIZ tashkil etilgan hudud "Navoiy" EIIZ mavjud bo'lishining butun davrida foydalanish va boshqarish uchun Ma'muriy kengashga beriladi.

*"Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona Ma'muriy kengashiga:*

- ❖ Vazirlar Mahkamasi bilan kelishgan holda tanlov asosida, EIIZ direksiysi sifatida xalqaro e'tirof etilgan boshqaruvcchi kompaniyani tanlash va unga shartnoma asosida EIIZni boshqarish;

- ❖ Xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa tushumlar hisobiga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda uning foydalanishida va boshqaruvida bo'lgan yerlar, binolar va inshootlarni ijara berishdan olingan tushumlarning bir qismi hisobiga shakllantiriladigan erkin industrial-iqtisodiy zonaning mustaqil budgetini shakllantirish;

- ❖ Mustaqil budget doirasida, mablag'lari infratuzilmani rivojlantirishga va erkin industrial-iqtisodiy zonaning faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltiriladigan Erkin industrial-iqtisodiy zonani rivojlantirish jamg'armasini tashkil etish huquqi berilgan.

"Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasini tashkil qilishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat: (Farmon, 2008)

- ❖ Juhon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash;

- ❖ Zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish;

- ❖ Xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish;

Zamonaviy xorijiy yuqori unumli asbob-uskunalar va texnikani, texnologiya liniyalari va modullarni, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hisobiga yuqori texnologiyali, jahon bozorlarida

raqobatbardoshli mahsulotlarning keng doirasini ishlab chiqarish "Navoiy" EIIZ qatnashchilari faoliyatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi<sup>10</sup>.

"Navoi" EIIZ iqtisodiyotimizni kompleks rivojlantirish, transport kommunikatsiyasi va infratuzilma taraqqiyoti uchun muhim nuqta hisoblanadi. Logistik hab bu hududning asosiy bo'gini hisoblanadi. Chunki aynan shu hab havo va temir yo'llarni bir-biriga bog'lovchi transport-ekspeditorlik markaz sifatida faoliyat ko'rsatadi. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi Dehli, Bangkok, Moskva yo'nalishlari bo'yicha yuk tashishni mo'ljallamoqda va SkyTeam deb nomlanuvchi global aviatsiya aliansiya qo'shilishga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda va bu istiqbolladagi ishlar ulkan ekanligini namoyon qiladi (Farmon, 2008).

"Navoiy" EIIZ quyidagi tartib qoidalar asosida shakllantirilmoqda (Farmon, 2008):

EIIZ faoliyati davomida uning hududida alohida bojxona, valuta va soliq rejimlari, O'zbekiston Respublikasi norezident fuqarolarining uning hududiga kirish, hududda bo'lish va chiqib ketishning, shuningdek, ular tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsatnomalar olishning soddalashtirilgan tartibi joriy etiladi (Дъюар, 1997).

"Navoiy" EIIZ zona direksiysi xo'jalik yurituvchi subyektlarga EIIZ hududida yer uchastkalarini subijaraga topshirish, o'z huquq va majburiyatlarini ijara shartnomasi bo'yicha boshqa shaxsga berish, ijara huquqini garovga qo'yish, ularni ulush sifatida ustav kapitaliga qo'shish huquqisiz ijaraga beradi. EIIZ hududida yer uchastkalarini sotish va boshqacha tarzda o'zgaga berish taqilanganadi. "Navoiy" EIIZda beriladigan imtiyozlar va yengilliklar quyidagicha (Farmon, 2008):

1) "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonada ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi subyektlar ularga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi quyidagicha bo'lgan taqdirda yer solig'i, mulk solig'i, daromad solig'i, obodonchilik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona soliq to'lovi (kichik korxonalar uchun), Respublika yo'l jamg'armasi va Respublika mакtab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga majburiy to'lovlardan ozod etiladi:

1. 3 million yevrodan 10 million yevrogacha – 7 yilga;

2. 10 million yevrodan 30 million yevrogacha – 10 yilga. Keyingi 5 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi;

3. 30 million yevrodan ortiq bo'lganda – 15 yilga. Keyingi 10 yil davomida foyda solig'i va yagona soliq to'lovi hajmi amaldagi stavkadan 50 foiz miqdorida belgilanadi.

2) Bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlari (Farmon, 2008):

1. EIIZda ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi subyektlar EIIZ faoliyat ko'rsatadigan butun muddatga eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish maqsadida mamlakatga olib kelinayotgan asbob-uskunalar, shuningdek, xomashyo, materiallar va butlovchi qismlar bojxona to'lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'implardan tashqari) ozod qilinadi (Tsou Chibo, 2006).

3) "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonada ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga quyidagilar ruxsat etiladi:<sup>11</sup>

1. Ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar va kontraktlar bo'yicha hisob-kitob va to'lovlarni EIIZ hududida xorijiy valutada amalga oshirish;

2. O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ish va xizmatlarning haqini erkin almashtiriladigan valutada to'lash;

3. Eksport va import qilinadigan tovarlar uchun haq to'lash va hisob-kitob qilishning ularga qulay shartlari va shakllaridan foydalanish.

4. "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonada ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligining soliq to'lovchilar ahvolini yomonlashtiruvchi hujjatlari tatbiq etilmasligi belgilab qo'yilgan, aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarning soliqqa tortilishini tartibga soluvchi hujjatlar bundan mustasno (Vey Kayian, 2006).

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

EIIZ ni O'zbekistan, xususan Navoi viloyatida yaratishga asos bo'luvchi omillar:<sup>12</sup>

Birinchidan, hududning joylashuvi – Yevroosiyoning markazi:

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Nizomi "Navoi" EIIZ to'g'risida. Umumiy qoidalar, 3-band

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Nizomi "Navoi" EIIZ to'g'risida. Umumiy qoidalar, 3-band.

<sup>12</sup> Nomura Research Institute LTD. "Navoida transport habini rivojlantirish bo'yicha strategik loyihalashtirish" 2008 y. Mart

1-rasm. O'zbekiston - Yevroosiyoning markazi<sup>13</sup>

❖ Evropa va Osiyoning o'rtaida joylashganligi uning asosiy 5ta o'sib borayotgan bozorlar - MDH, Markaziy va Sharqiy Yevropa, Janubiy va Janub-Sharqi Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari bozorlariga chiqish imkoniyatlarini yaratadi;

❖ O'zbekistonning geografik joylashuvi yevropa va osiyolik yirik yuk tashuvchilarga Markaziy Osiyoda vaqtinchalik to'xtash imkonini bergani holda ularni o'ziga jalb etadi.

Ikkinchidan, iqlim sharoiti jihatidan:

❖ Tumanli kunlar oz bo'lgan juda ham qulay ob-havo sharoiti. Bu ayniqsa havo transporti uchun o'ng keladi;

❖ Navoi viloyatining yumshoq iqlimi, shuningdek quyoshli kunlar o'rtacha 255 kunni (o'rtacha 3 ming soatni) tashkil etishi aeroportdan muqim darajada foydalanish imkonini yaratadi va zamonaviy aeronavigatsion sistemalar "nol" darajadagi havoda ham samolyatlarni qo'ndirish imkonini yaratadi.

Uchinchidan, O'zbekistonning geografik markazi jihatidan:

❖ Navoi va unga qo'shni viloyatlar O'zbekistondagi eng tez rivojlanayotgan hududlar hisoblanadi;

❖ Viloyat o'zining mehnat resurslari va past darajadagi operatsion harajatlari asosida infrastrukturani rivojlanishi ushun to'g'ridan-to'g'ri horijiy investitsiyalarni jalb etadi. O'zbekistonning investitsiyalarni qabul qilish qobiliyati juda ulkan bo'lib, keyingi 5 yil davomida hajmi 24 mlrd.\$ dan ortiq 300dan ziyod proyektlarni amalgalashish ko'zda tutilmoqda;

❖ Navoi geografik jihatdan O'zbekiston Respublikasining markazida joylashgan. Shuning Samarqand va Buxoro kabi shaharlar undan unchalik uzoq emas, taxminan 100-150 km masofada joylashgan.

To'rtinchidan, sanoat va tijorat korxonalari va xom-ashyo bazasi jihatidan:

❖ Yirik to'g-metallurgiya, kimyo va yengil sanoat korxonalari, qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi hamda chuqur qayta ishlashga moslashgan korxonalarning mavjudligi. "Qililqumsement", "Nurotamramor", Navoiy IES, "Navoiyazot", "Elektroximzavod" kabilar;

❖ Tog'-kon sanoatining avzalliklari va potentsialidan foydalangan holda kelajakda xalqaro hamkorlikning barqaror va doimiy rivojlanishiga imkon mavjud. Ulkan xom-ashyo resurslarining mavjudligi transport xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. O'zkistonning energetik salohiyati milliy iqtisodiyotning talablarini minimum 100 yil ta'minlay oladi.

<sup>13</sup> Navoi guide - [www.navoi-fiez.uz](http://www.navoi-fiez.uz)

Beshinchidan, syosiy barqarorlik jihatidan:

❖ *Diniy kelishmovchilik va ijtimoiy nizolardan holi ekanligi mintaqaning siyosiy barqarorligini ta'minlaydi.*

Oltinchidan, infrastruktura va kengayish imkoniyatlari:

❖ *Aeroportning atrofida xalqit beradigan obyektlarning yo'qligi hududning kelajakda yanada kengaytirish imkoniyatini yaratadi;*

❖ *Aeroportni shahar bilan bog'lovchi avtomobil yo'lining mavjudligi hamda shu yo'lga parallel ravishda 1,3 km masofada xalqaro mashtabdagи*

### **Xulosa va takliflar.**

*Maxsus iqtisodiy hududlar asosiy mohiyati mintaqani jadal ijtimoiy- iqtisodiy rivojlantirish uchun ichki va tashqi kapitalni, istiqbolli texnologiyalar va boshqaruvga oid tajribalarni jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududlarni anglatadi.*

O'zbekiston sharoita MIHlar tashkil qilishga bo'lgan xarakatlar va hozirgi kundagi istiqbolli rejalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va ayrim nozik jihatlarni hisobga olgan holda MIHlarning tashkil etilishi kelajakdagi yutuqlarga podevor bo'lib xizmat qiladi. MIHlar tashkil qilishdan turli mamlakatlar turlicha maqasatlarni ko'zlaydilar.

MIHni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar quyidagicha:

✓ mamlakat iqtisodiyotiga chet el investitsiyasini jalb etish, ayniqsa to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay imkoniyat;

✓ chet el investorlari ishtirokida mamlakat tadbirkorlari faoliyatini yo'lga qo'yish va oqibatda tovar va xizmatlar eksporti hajmini oshirish;

✓ mamlakatning ichki bozoriga yuqori sifatli mahsulotlar va xizmatlar, yangi texnika va texnologiyalarning kirib kelishi va tadbiq qilinishini ta'minlash;

Jahon xo'jaligida maxsus iqtisodiy hududlarning shakllanishi, ya'ni tashkil qilish va jahon xo'jaligida maxsus iqtisodiy hududlar faoliyatini rivojlantirish orqali tarqqiyotga erishish va milliy iqtisodiyot yuksalishida tashqi savdo-sotiq siyosatini ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish, uning ijobjiy tomonlarini umumlashtirish asosida O'zbekistonda maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil qilish va uni rivojlantirish istiqbollari, hamda maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etishdagi jahon tajribasidan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari borasida quydiagi *takliflarni* bildirib o'tamiz:

"Navoiy" EIIZdagi xalaro intermodal logistik habning imkoniyatlarini yanada kengaytirish va hududning sanoat ishlab chiqarish hududida jahon standardlariga javob beradigan va raqobatga dosh beradigan eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish, hamda import o'rnnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish eng ustivor vazifalardan hisoblanadi.

"Navoiy" EIIZ dasturining samara berishi o'z-o'zidan kompleks rivojlanish uchun turtki beradi. Chunki hududni tashkil etishining bevosita foydalaridan tashqari, bilvosita foydalari ham mavjud. Shu sababdan eng katta e'tibor aynan mana shu zonani tez va sifatli ravishda tashkil qilish hamda uning faoliyatini kengaytirish yo'lidagi sa'y-xarakatlarga qaratilgan.

### **Adabiyotlar / Литература / Literature:**

Farmon (2008) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida" (04.12.2008 12:01) farmoni

Farmon (2008) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Navoi viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida" 02.12.2008 y.N PF-4059

Navoi guide - [www.navoi-fiez.uz](http://www.navoi-fiez.uz)

Tsjou Chibo (2006) "XXRda MIH bo'yicha chet el mutaxassislari", "Guandundagi sotsiologiya" jurnali/Tsjou Chibo, C 47-47

Vey Kayian, (2006) "XXRdagi 5ta MIH rivojlanishini o'rGANISH", Iqtisodiy boshqaruv nashri, C 68-74

Дъюар С. (1997) «СЭЗ - возможности и ограничения». Деловой партнер №7, С 55-57

Мозиас П. "Свободные экономические зоны: тенденции мирового опыта". Финансовый бизнес. 1994. - №3 ; С 21-23